

**BOLALARDA ZO‘ROVONLIKSIZ MUHIT YARATISHDA ZAMONAVIY  
PEDAGOGIK YONDASHUVLAR**

*Qashqadaryo viloyati Nishon tumani  
7-son DMTT direktor o‘rinbosari  
Primova Komila Bobamurotovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda zo‘ravonliksiz muhitni shakllantirish masalalari yoritilgan. Unda zo‘ravonlik tushunchasi, uning turlari, huquqiy asoslari hamda profilaktik chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar — shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, hamkorlik pedagogikasi, o‘yin faoliyati, emotsional intellektni rivojlantirish va inklyuziv yondashuv asosida bolalar xavfsizligini ta’minlash yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Pedagoglar, ota-onalar va davlat tashkilotlari hamkorligining ahamiyati ochib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы формирования безопасной среды без насилия в дошкольных образовательных организациях. Проанализированы понятие насилия, его виды, правовые основы и профилактические меры. Особое внимание уделено современным педагогическим подходам, таким как личностно-ориентированное обучение, педагогика сотрудничества, игровая деятельность, развитие эмоционального интеллекта и инклюзивный подход. Раскрыта роль взаимодействия педагогов, родителей и государственных структур в обеспечении безопасности детей.

**Abstract:** This article examines the issues of creating a violence-free environment for children in preschool educational institutions. It analyzes the concept of violence, its types, legal frameworks, and preventive measures. Special attention is given to modern pedagogical approaches such as learner-centered education, cooperative pedagogy, play-based learning, emotional intelligence development, and inclusive education. The importance of collaboration between teachers, parents, and government institutions in ensuring children's safety is highlighted.

**Kalit so‘zlar:** zo‘ravonlik, zo‘ravonliksiz muhit, maktabgacha ta’lim, pedagogik yondashuv, bolalar xavfsizligi, profilaktika, emotsional rivojlanish, hamkorlik, inklyuziv ta’lim

**Ключевые слова** насилие, безопасная среда, дошкольное образование, педагогический подход, безопасность детей, профилактика, эмоциональное развитие, сотрудничество, инклюзивное образование

**Keywords:** violence, violence-free environment, preschool education, pedagogical approach, child safety, prevention, emotional development, cooperation, inclusive education

*Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular uchun xavfsiz va qulay ta'lim muhitini yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish masalasi pedagogika va psixologiya sohalarida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida zo'rvonliksiz muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim muassasasida psixologik xavfsiz muhit yaratish muhim omil hisoblanadi. Bunday muhitda bolalar o'z fikrini erkin bayon etadi, xatolardan qo'rqmaydi va o'zini himoyalangan his qiladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi. DMTT direktor o'rinbosari esa mazkur jarayonni boshqaruvchi subyekt sifatida pedagogik jamoada zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, monitoring olib borish va metodik yordam ko'rsatish orqali muhim rol o'ynaydi.*

O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida" gi qonuni 2024 - yil 11-noyabrda qabul qilingan, 2025- yil 15-mayda rasman kuchga kirgan. Qonun 5 bob, 51 moddadan iborat, 2020 yil 29 maydagi PQ-4736-sonli "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarori mazmun mohiyatini amaliyotda qo'llash, bu borada milliy qonunchilik va umume'tirof etilgan mezonlardan foydalanib, mahalliy va xorijiy tajribadan chuqur o'rganib, davlat talablaridan kelib chiqqan holda mazkur ishchi o'quv dastur yangidan ishlab chiqildi. Shuni hisobga olgan holda, hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida Bola huquqlarining kafolatlari bo'yicha maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirish va faoliyatini samarali olib borishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda, hamda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib borilmoqda. Bugungi globallashtirish va axborot oqimi kuchaygan davrda bolalarning psixologik xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nozik va ta'sirchan bo'lgani sababli, ular uchun zo'rvonliksiz, sog'lom va qulay muhit yaratish muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zo'rvonliksiz muhitni shakllantirish nafaqat bolalarning ruhiy holatini himoya qiladi, balki ularning ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tarbiya jarayonini tashkil etish zarur hisoblanadi.


***Bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan***

*telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'ravonlik deb e'tirof etiladi.*

Jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo'ravonlikning shakllaridir. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta'qib qilinadi.

Bolalarga og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog'lig'i uchun xavfli holatda bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatmaslik hamda zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish yoxud bolalarning hayoti, sog'lig'i yoki erkinligiga tajovuz qiladigan jismoniy ta'sir o'tkazish bolalarga nisbatan **jismoniy zo'ravonlik** deb e'tirof etiladi.

**Zo'ravonliksiz muhit** — bu bolalar uchun xavfsiz, hurmatga asoslangan va psixologik jihatdan qulay ta'lim-tarbiya muhiti hisoblanadi. Bunday muhitda bolalar qo'rqmasdan o'z fikrini bildiradi, erkin rivojlanadi va ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi.



Zo'ravonliksiz muhit yaratish zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshirilib, bolalarning har tomonlama sog'lom va barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha targ'ibot tadbirlari**

*Jamiyatda bolalar uchun zo'ravonliksiz, g'amxo'r, hurmatga va gender tenglikka asoslangan munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydigan me'yor va qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida quyidagi choralar ko'riladi:*

➤ bolalarga nisbatan zo'ravonlik, oiladagi nizolar va erta nikohning salbiy ta'siri haqida aholining xabardorligini oshirish, oilalarda sog'lom ijtimoiy muhitni targ'ib qilish uchun “mahalla yettiligi” va turli sohalarda faoliyat yuritayotgan hamda muayyan yutuqlarga erishgan shaxslar ishtirokida targ'ibot tadbirlarini tashkil etish;

➤ fuqarolarning bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha xabar berish yuzasidan mas‘uliyatini oshirishga (bolaga doir shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiyligini ta‘minlagan holda) qaratilgan targ‘ibot materiallarini tayyorlash va ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish;

➤ jamiyatda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlovchi stereotiplarni o‘zgartirishga qaratilgan targ‘ibot va tashviqot ishlarini kengaytirish;

➤ bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, qonunchilik hujjatlari va dasturlar haqida jamoatchilikning xabardorligini oshirish;

➤ zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik va oilada o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, erta nikohning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot materiallarini tayyorlash, targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish;

➤ bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini axloq me‘yorlarni hisobga olgan holda konstruktiv yoritish uchun ommaviy axborot vositalari xodimlarining salohiyatini oshirish, jurnalistika etikasiga rioya etilishini ta‘minlash.

Bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan **ruhiy zo‘ravonlik** deb e‘tirof etiladi.

***Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar jumlasiga quyidagilar kiradi:***

➤ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani);

➤ Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi;

➤ prokuratura organlari;

➤ ichki ishlar organlari;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;

➤ ta‘lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta‘lim muassasalari, nodavlat ta‘lim tashkilotlari;

➤ davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;

➤ mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari;

➤ fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari.

➤ Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari va tashkilotlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

**Xulosa qilib aytganda,** zo‘ravonliksiz muhit yaratish maktabgacha ta‘lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida samarali amalga oshiriladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, hamkorlik pedagogikasi, o‘yin faoliyati, emotsional intellektni rivojlantirish va inklyuziv ta‘lim kabi yondashuvlar bolalarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirib, agressiya va zo‘ravonlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llanilganda ta‘lim muhitida o‘zaro hurmat, ishonch va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish mumkin. Natijada bolalar psixologik jihatdan sog‘lom, ijtimoiy faol va ma‘naviy yetuk shaxslar sifatida shakllanadi.

#### ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.— T.: “O‘zbekiston”, 2023-yil
2. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-qarori bilan qabul qilingan. Nyu-York, 1989-yil 20-noyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida” 139-son Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-son Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 11-noyabrdagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida” 996-son qonuni